

UDC (UO‘K, УДК): 82.091

## REY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA G‘ARB VA SHARQ MADANIYATI<sup>4</sup>

*Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna*

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

mustaqil tadqiqotchisi,

Jahon adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

O‘zbekiston, Tashkent

[shaxnozayuldoshova1991@gmail.com](mailto:shaxnozayuldoshova1991@gmail.com)

Orcid ID 0009-0009-9553-6353

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Rey Bredberi va Isajon Sulton ijodiga tayanib, G‘arb va Sharq madaniyatlarining badiiy tafakkurdagi ifodasi komparativ yondashuv asosida tahlil qilinadi. Asarlar orqali ikki madaniyat vakillarining olamni idrok etishi, axloqiy-estetik qadriyatlarga munosabati va badiiy timsollar orqali berilgan g‘oyaviy-falsafiy yo‘nalishlari ochib beriladi. Bredberi asarlarida texnologik taraqqiyot, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi falsafiy o‘ylar G‘arb madaniyati kontekstida talqin etilsa, Sulton asarlarida inson ruhiyatidagi e‘tiqodiy tushunchalar, milliy o‘zlik va ma‘naviy izlanishlar Sharqona qarashlar asosida ifodalanadi. Maqolada madaniyatlararo tafakkurning fantastik asarlardagi badiiy ko‘rinishlarini qiyosiy tahlil qilish orqali, global muammolarni milliy adabiy tafakkur orqali qanday yoritilishi mumkinligini tahlilga tortiladi. Tadqiqot natijalari badiiy matnlar orqali madaniy qarashlar va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining estetik ifodasini namoyon etadi. Maqolada “Fahrengeyt bo‘yicha 451 daraja” hamda “Boqiy darbadar” asarlari misolida madaniy o‘ziga xoslik, shaxs va jamiyat munosabatlari, madaniy xotira va zamonaviylik muammolari ko‘rib chiqiladi. Mualliflar madaniyatlararo muloqotining badiiy funksiyalari tahlil qilinib, bu jarayonda motiv, obraz va metaforalar qanday ishlatilishini badiiy mezonlar asosida yoritiladi.

### KALIT SO‘ZLAR

G‘arb va Sharq madaniyati, komparativ adabiyot, Rey Bredberi, Isajon Sulton, badiiy tafakkur, estetik talqin, madaniy qadriyatlar, fantastik adabiyot.

**Received:** June 23, 2025

**Accepted:** July 18, 2025

**Available online:** September 3, 2025

<sup>4</sup>For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Yuldoshova Sh. Rey Bredberi va Isajon Sulton asarlarida g‘arb va sharq madaniyati. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 53-69.

## LITERARY REFLECTION OF WESTERN AND EASTERN CULTURE IN THE WORKS OF RAY BRADBURY AND ISAJON SULTAN

*Yuldoshova Shakhnoza Azimboyevna*

independent researcher, teacher of Uzbekistan State

World Languages University,

Uzbekistan, Tashkent

[shaxnozayuldoshova1991@gmail.com](mailto:shaxnozayuldoshova1991@gmail.com)

Orcid ID 0009-0009-9553-6353

---

### ABSTRACT

This article analyzes the expression of Western and Eastern cultures in artistic thinking based on a comparative approach, drawing from the works of Ray Bradbury and Isajon Sulton. Through these works, the perception of the world by representatives of two cultures, their attitudes towards moral and aesthetic values, and the ideological directions conveyed through artistic imagery are revealed. In Bradbury's works, technological progress and the relationship between the individual and society are interpreted within the context of Western culture, while in Sulton's works, human psychology, national identity, and spiritual quests are expressed through Eastern perspectives. The article demonstrates how global issues can be illuminated through national literary thinking by comparatively analyzing the literary and artistic manifestations of intercultural thought. The research results showcase the aesthetic expression of the harmony between cultural views and universal values through literary texts. The article examines issues of cultural identity, individual-society relationships, cultural memory, and modernity through the examples of "Fahrenheit 451" and "The Eternal Wanderer." The author analyzes the artistic functions of intercultural communication, demonstrating how motifs, images, and metaphors are employed in this process.

---

### KEY WORDS

Western and Eastern culture, comparative literature, Ray Bradbury, Isajon Sulton, artistic thinking, aesthetic interpretation, cultural values, science fiction literature

## ЗАПАДНОЙ И ВОСТОЧНОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РЕЯ БРЭДБЕРИ И ИСАДЖОНА СУЛТАНА

*Юлдошова Шахноза Азимбоевна*

независимый исследователь, преподаватель  
Узбекский государственный университет

мировых языков

Узбекистан, г.Ташкент

[shaxnozayuldoshova1991@gmail.com](mailto:shaxnozayuldoshova1991@gmail.com)

Orcid ID 0009-0009-9553-6353

---

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе сравнительного анализа рассматривается отражение западной и восточной культур в художественном мышлении. Исследование выполнено на материале произведений Рэя Брэдбери и Исаджона Султана. В их творчестве в художественной форме представлены особенности восприятия мира представителями двух культур, их отношение к нравственно-эстетическим ценностям и различия в идейно-философской направленности. Если в произведениях Брэдбери технологический прогресс, взаимоотношения личности и общества интерпретируются в контексте западной культуры, то в произведениях Исаджона Султана внутренний мир человека, его национальная самобытность и духовные искания осмысливаются на основе восточного мировоззрения. В статье посредством сравнительного анализа литературно-художественных проявлений межкультурных связей показано, как глобальные проблемы могут быть освещены через призму национального литературного мышления. Как результат, проведенное исследование установило эстетически выраженную гармонию между особенностями культурно обусловленных подходов и общечеловеческих ценностей в изученных художественных текстах.

В статье на примере произведений «451 градус по Фаренгейту» и «Вечный скиталец» рассматриваются проблемы культурной самобытности, взаимоотношений личности и общества, культурной памяти и современности. Автор анализирует художественные функции межкультурного диалога и показывает, как в этом процессе используются мотивы, образы и метафоры.

---

### KEY WORDS

Западная и восточная культура, сравнительное литературоведение, Рэй Брэдбери, Исаджон Султан, художественное мышление, эстетическая интерпретация, культурные ценности, фантастическая литература

## KIRISH

Har qanday badiiy asarni o‘qiyotganda o‘quvchi o‘sha asar yozilgan zamon, makon va ma’daniyat bilan shubhasiz “to‘qnashadi”. Bu “to‘qnashuv” “do‘stona uchrashuv” yoki “ma’nadiy shok” shaklida ham bo‘lishi mumkin. Yozuvchining fikri, aytmoqchi bo‘lgan maqsadi yoki foydalangan ramziy belgi-timsollari ham bevosita u yashagan makon va xalqning ma’daniyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Oxirgi yillarda Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyotga ma’daniy savodxonlik obyekti sifatida qarash rivojlanmoqda. Madaniy savodxonlik - bu ijtimoiy va madaniy masalalarga, ayniqsa o‘zgarish va harakatchanlik masalalariga, biz ko‘rib turgan olamga, adabiy tafakkur obyekti orqali qarash usulidir. Bu narsalarning matnliligi, badiiyligi, ritorikligi va tarixiyligini hisobga olgan holda topish va ma’no berish usulidir. Bu gumanitar fanlar va boshqa fanlar o‘rtasidagi umumiy fanlararo harakatning bir qismidir, ammo bu kengroq harakat doirasidagi alohida faoliyatdir. (Segal N., Koleva D., 2014) Qanday qilib odam madaniy savodli bo‘ladi? Ko‘proq o‘qish, turli mavzularni o‘qish, o‘qish mashaqqatli ish emas, balki zavqqa aylanganda, tabiiy ravishda madaniy savodxon bo‘ladi. Bu oddiy haqiqat: odam qanchalik ko‘p o‘qisa, o‘qiganini shunchalik ko‘p tushuna oladi, o‘qishdan shunchalik zavq oladi va madaniy savodxon bo‘ladi. Shundan kelib chiqsak, bizning mavjudligimizni shakllantiradigan va to‘ldiradigan ijtimoiy va madaniy hodisalarga - bilimlar jamlanmalariga, ijtimoiy harakat sohalariga, shaxslar yoki guruhlarga va, albatta, madaniy artefaktlarga, shu jumladan matnlarga - ularni mohiyatan o‘qilishi mumkin deb hisoblaydigan munosabatdir. Ushbu o‘qilishi mumkin bo‘lgan matn, fantastika, ritorika va tarixiylik kabi asosiy tushunchalar bilan tavsiflanadi, ular ham hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari, ham ularni o‘rganish usullari sifatida tushuniladi. Sharq obrazlari ko‘pincha G‘arb nigohida ekzotik, botinlik va sirli makon sifatida tasvirlanadi, bu esa madaniy stereotiplar va ideologik konstruksiyaga olib keladi. (Said E. W., 1978, 1.) Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu bobda ilmiy ishimizning obyekti bo‘lgan asarlar Rey Bredberining “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” va Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarlaridagi sharqona

va g'arbona madaniyati unsurlarining asardagi talqinini ko'rib chiqamiz. Zero, G'arb va Sharq tafakkuri orasidagi muloqot aynan dialogik xususiyatga ega bo'lib, madaniyatlar bir-birini anglash orqali o'z chegarasini belgilaydi. (Bakhtin M. M., 1981, 358.)

### ASOSIY QISM

Avvalo har ikki asar turli makon va zamonda, turli madaniyatli o'lkalarda yozilganidan kelib chiqib, ularda sharq va g'arb o'rtasidagi farq seziladi. Amerikacha individualizm va sharqona o'zbek madaniyatining tasviri yaqqol namoyon bo'ladi. Madaniy gibridlik aynan Sharq va G'arb chegarasida yuzaga keladi, bu esa fantastik asarlarda yangi estetik shakllar paydo bo'lishiga olib keladi. (Bhabha H. K., 1994, 56.) Rey Bredberi kitobini Ikkinchi jahon urushidan keyin, jamiyat butunlay bir xillashtirishga urinilayotgan, jamiyat robotlashtiriladigan, omma ongi va hayoti televideniye orqali elektron boshqarilishga urinilayotgan vaqtda dahshatga tushib yozadi. U kelajak avlodni ogohlantirish, texnikaga mukkasidan ketishning oqibatlarini ko'rsatishga urinadi. Bu mavzu abadiydir va unga xos bo'lgan muammolar hali ham hayotimizda dolzarbdir. Darhaqiqat, asardagi xavf-xatarlar faqatgina badiiy to'qimaga asoslanibgina qolmaydi, balki hayotiy lashib bormoqda. Konstitutsiya bilan himoyalangan so'z erkinligi asosida rivojlanayotgan ko'plab ekstremistik tashkilotlarda senzura kichik masala sifatida boshlanadi va keyinchalik rasmiy yoki hatto milliy senzura aylanishi mumkin. Senzura butun jamiyatni qashshoqlashtirishga qaratilgan birinchi qadamdir. Ommaviy axborot vositalari keyingi qadamni ta'minlaydi: propaganda tashviqotiga ommaviy aqlsiz sadoqat. Ko'pgina tijorat televideniyesi mahsulot yoki turmush tarzini sotish uchun xizmat qiladi. Umuman olganda asarda 1950-yillar Amerika jamiyatining ko'pgina milliy odat va an'analari, madaniy jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Quyida berilgan parcha va misollar bunga namuna bo'la oladi. "Madaniyat chegarasida paydo bo'lgan har qanday yangilik, to'qnashuvlar natijasida yuzaga keladi." (Lotman Yu. M., 1992, 41.) Adabiy tanqidchi Lotmanning fikricha, madaniyatlararo to'qnashuv badiiy yangiliklar tug'ilishiga sabab bo'ladi, bu

xususiyat fantastik asarlarda yaqqol koʻzga tashlanadigan unsurdir. Rey Bredberi va Isajon Sulton asarlari ham bundan mustasno emas, albatta.

Jamiyatning jadal rivojlanib borishi va uning tabiatdan ajralishi - romanda odamlar tabiatni sezmaydilar; ular tezlik va texnologiyaga juda bogʻliq. Hatto bosh qahramon Montag ham Klarissa bilan uchrashgandan keyin tabiat va uning goʻzalligini payqadi.

Muloqot va shaxslararo munosabatlarning yoʻqligi - bu holatni biz Montag va uning rafiqasi Mildred oʻrtasidagi munosabatlarni koʻrishimiz mumkin. Avvaliga Montag oʻzining oilaviy hayotidan shikoyat qilmaydi va Mildredning odatiga va shaxsiyatiga shubha qilmaydi. U faqat mukammal xotini bilan mukammal baxtli hayot kechirishiga ishonadi. Biroq, Klarissa bilan birinchi uchrashuvidan keyin hamma narsa oʻzgaradi. U savol berishni boshlaydi va oxir-oqibat ularning nikohida boʻshliqni his qiladi. Baxtli nikoh haqidagi illyuziya oxir-oqibat yoʻq boʻlib, *“ahmoq boʻsh erkak va ahmoq boʻsh ayol”* (Bredberi R., 2022, 59.) oʻrtasida uzoq va boʻsh munosabatlar qoladi. Montag ular orasidagi masofa, boʻshliq borligini tan oladi va bu boʻshliqni Mildredning ommaviy axborot vositalari sababli deb oʻylaydi. Montag, Wall TV va Seashell Radio koʻrinishidagi ommaviy axborot vositalarini ajralish muhiti uchun javobgar deb gumon qildi. Darhaqiqat, ular muloqot qilishda qiynaladilar, chunki: *“The living-room; what a good job of labeling that was now. No matter when he came in, the walls were always talking to Mildred.”* (Bredberi R., 2022, 59.) - *...devorlar doimo Mildred bilan gaplashgan, Gapiruvchi mehmonxona. Juda topib aytilgan gap! U yerga qachon kirmasin, devorlar Mildred bilan gaplashayotgan boʻladi.”*(Bredberi R., 2022, 48.) Tele-devorlar Mildredning muloqot qilish illyuziyasini yaratadi. Binobarin, Mildred koʻpincha Montagni eʼtiborsiz qoldiradi, chunki u eri bilan haqiqiy suhbatlashishdan koʻra teleekrandagi “oila” bilan aloqada boʻlishni afzal koʻradi. Montag Mildredning dugonalari bilan gaplashib, ularning erlari va bolalari haqida soʻraganidan keyin, oʻzaro suhbat ularing ham oilalarida yoʻq ekanligini tushunib yetadi. *“I plunk the children in school nine days out of ten. I put up with them when they come home three days a*

month; it's not bad at all. You heave them into the 'parlour' and turn the switch. It's like washing clothes; stuff laundry in and slam the lid." Mrs. Bowles tittered. "They'd just as soon kick as kiss me. Thank God, I can kick back!" (Bradbury R., 1995, 92.) – "Juda bunchalik emas, bola yomon emas. O'n kundun to'qqiz kunini maktabda o'tkazishadi. Ular uyda bo'lganida oyda uch kungina birga bo'laman. Bu ham bir navi. Ularni mehmonxonaga haydab, devorni ulayman qutilaman-qo'yaman, Xuddi kir yuvgandek. Qirlarni mashinaga solasiz-u, shaq etib qopqog'ini yopasiz, — missis Bauels qiqirlab kuldi, — hech qanday erkalash-perkalashga o'rin yo'q. Meni quchoqlab o'pish bolalarimning yetti uxlab tushiga kirmaydi. Menga qo'l ko'tarib tepkilashning payiga tushadilar; Xudoga shukur, men ham ularni javobsiz qoldirmayman." (Bredberi R., 2022, 129.) Yuqoridagi gaplardan ko'rinib turibdiki, Boulz xonim o'z farzandlariga qayg'urmaydi. U bolalarni iloji boricha o'zidan uzoqda bo'lishini, unutilishini xohlaydi, shuning uchun u ularni oyiga 27 kunlik maktabga joylagan va 3 kun qaytib kelganida, ularni shunchaki mehmonxonadagi tele-devorlar qarshisiga o'tqizib qo'yadi, ularni erkalamaydi, shunda u dam olishi, bo'shshishi va "hayotdan zavqlanishi" mumkin. Hatto ona bolalar bir-birini kaltaklashi, mehr bermasligi ham normal holat. Bu amerikacha individualismning bir ko'inishi sifatida ham namoyon bo'ladi. Er-xotinlik munosabatlari, oilaviy muhit haqida ham Bredberi anchayin tanqidiy yondashadi, Ikkinchi jahon urushidan so'ng avj olgan ekzistensializm, oilaviy qadriyatlar tanazzuli, ayollarning farzand ko'rishni istamasliklari yoki shunchakiki nasl davom etishi uchungina farzand ko'rib ularning kelajagi va ruhiyati, ma'naviyati haqida qayg'urmasliklari, shaxsiyatdan oilaparvar va birmuncha konservativ muhitda katta bo'lgan yozuvchini dahshatga soladi-ki, bu narsalar haqida o'z asarida anchagina tanqidiylik bilan yondashadi. Asardagi oila mavzusiga to'xtalsak, unutilish va sadoqatsizlik madaniyati ta'siri tufayli "Farengeyt bo'yicha 451 daraja"da jamiyatning oila tuzilishi axloqiy qabul qilingan oila tuzilishidan juda farq qiladi. Romandagi odamlar turmush qurishi bilanoq tezda ajrashadi. Ularning jamiyatida uch martadan ortiq turmush qurish va ajrashish odatiy holdir. Asarda juftliklar sherigiga ahamiyat bermaydilar yoki chinakam sevmaydilar. Shunday qilib, agar er-

xotin ajrashishga qaror qilsa yoki ulardan biri vafot etsa, ikkinchisi shunchaki borib, boshqasiga turmushga chiqadi va bu juda ham normal holat. “...*Pete and I always said, no tears, nothing like that. It’s our third marriage each and we’re independent. Be independent we always said. He said if I get killed off, you just go right ahead and don’t cry, but get married again and don’t think of me.*” (Bradbury R., 1995, 92.) – “*Har qalay, biz Pit bilan doimo hech qanday ko‘zyoshi, oh-vohlarga o‘rin bo‘lmasligi haqida gapirardik. Menda ham, unda ham uchinchi nikoh, bir-birimizga tobe emasmiz. Har kim mustaqil bo‘lishi kerak — doimo biz shunday deb hisoblardik. Pit agar uni o‘ldirishsa, ko‘zyoshi to‘kib o‘tirmay, tezroq turmushga chiqishimni aytdi, tamom-vassalom*”. (Rey Bredberi R., 2007, 100.) Monteg eri haqida so‘raganida, Felps xonim janob Pit urushga ketganini va armiya kecha qo‘ng‘iroq qilib, urush tez bo‘lishini va qirq sakkiz soat ichida tugashini aytdi. Keyin u shunday deydi: “*Men tashvishlanmayman .... Men kekxa Pitga hamma tashvishlarni qilishiga ruxsat beraman ... Men emas.... Men tashvishlanmayman*”(Tarjima bizdan Sh.Y.) “*I am not worried.... I’ll let old Pete do all the worrying...I’ll let old Pete do all the worrying....Not me....I am not worried*” (Bradbury R., 1995, 94.) Bundan tashqari, dugonasi Mildred ham uni urush o‘rtasida bo‘lgan va jiddiy xavf ostida bo‘lishi mumkin bo‘lgan erini unutilishga undaydi: “*Ha .... kekxa Pit tashvishlansin*”. *Yes.....let old Pete do the worrying*”. (Bradbury R., 1995, 96.) Yuqoridagi iqtiboslardan shuni ko‘rish mumkinki, “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” jamiyatida unutilish, unutilish madaniyati darajasiga chiqqan va shu qadar keng tarqalganki, askarlarning xotinlari urushda qatnashayotgan erlariga ham parvo qilishmaydi! Mildred kabi odamlar ham “o‘z oila”larini qadrlashadi, faqat ular insonlar emas, balki ularning oilalari o‘zlariga tegishli narsalar, devor televizorda kun bo‘yi tomosha qiladigan seriallardagi qahramonlar, “xolalari”, “amakilari” va “qarindoshlar”dir. Monteg va Mildred kitoblar va mehmonxonadagi devor-ekranlar haqida bahslashganda, bular oddiygina televizor ekanligi ularda jon va odam yo‘q ekanligi haqida gapirganda, janjallashib qolishadi. Mildred bunday emasligini: “*Hozir,*” deydi Mildred, “*mening “oilam” - odamlar. Ular menga bir narsalarni aytib berishadi; men kulaman, ular kuladi! Hammasi rango-rang!*” (Tarjima bizdan

Sh.Y.) *“Now,” said Mildred, “my ‘family’ is people. They tell me things; I laugh, they laugh! And colors!”* (Bradbury R., 1995, 69.) Mildred uyi va ekrandagilar uning oilasi ekanligiga ishonadi, ularda insoniy xususiyatlar borligiga ishonadi. Biroq, aslida, faqat ularga o‘rganib, ularga qaram bo‘lib qolgan, shuning uchun mehmonxonasining devorlari uni eridan ko‘ra ko‘proq tinchlantiradi, tasalli beradi va ko‘proq vaqtini o‘sha yerda o‘tkazadi.

“Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”dan farqli o‘laroq “Boqiy darbadar” asarida oila va oilaviy munosabatlarga sharqona yondashuv seziladi. Buning yaqqol isbotini Professor Ziyoning o‘g‘lining maktubida ko‘rishimiz mumkin: *“Bugun onamning xokisor va aziz qadamlarining izi qolgan hovlimizda ekanman, Parvardigori olamga imon keltirgan barcha kishilarning, avvalo sizning va onaizorimning haqqiga ko‘zlarimda yosh bilan duo qilgach, ushbu maktubni bitmoqdaman.”* (Sulton I., 2010, 23.) Yoki: *“...Esimni tanigach esa, zotingiz haqida Alloh Taoloning buyrug‘idan xabar topdim. Bolaligimdan beri eshitadiganim «otangga tik boqma, so‘ziga so‘z qaytarma, qarshisida qo‘lingni qovushtirib, boshingni eg», degan oddiy haqiqatlarning mohiyatini shundagina tushunib yetdim. Qo‘limdan kelganicha xorlik qanotini past tutdim, aytilganlarning barini ado etishga urindim...”* (Sulton I., 2010, 24.) Berilgan misollardan ko‘rinib turibdiki sharqona ota-onaga bo‘lgan hurmat, din-iymon masalalari, milliy qadriyatlarning oilaviy munosabatlarga chuqur singdirilganini, hatto vafot etgan onasining ham xotirasiga nisbatan hurmat hanuz saqlanganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari asarda bir necha marta takrorlangan chol va nabira epizodik qahramonlar ham, o‘tmish va kelajak, milliy qadriyat va zamonaviy ilmning o‘zaro bog‘liqligi timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, sharq madaniyatida yoshi katta avlodga donolik va hayotiy tajriba timsoli sifatida hurmat va izzat bilan qaraladi. Karvonboshi chol va uning nevarasi, darbadarlikka taqdir qilingan bolakay va Hazrat o‘rtasidagi suhbatlarda bu xislatlarni ko‘rish mumkin. “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”da bu munosabatlarni Monteg va Feber o‘rtasida ko‘rishimiz mumkin, shuncha kitoblarni o‘qib, ilmga ega bo‘lib, lekin, o‘z hayotida davomida tizimni o‘zgartirishga harakat ham qilib ko‘rmagan Faber bu ishni Monteg orqali qilishga harakat qiladi, unga to‘g‘ri yo‘l-

yoʻriq va murabbiylik qiladi. “Boqiy darbadar”da oilaviy munosabatlarning qanchalar sharq madaniyatida muhim ekanligi taʼkidlanishining yana bir dalili bu, Professor Ziyo oʻgʻlining maktubini oʻqigach, qilgan xatosini tushib yetishida koʻrinadi. “...Ota, abadiy darbadarlikka mahkum bir odam haqida aytgan rivoyatingizni eslaysizmi? Men hozir dunyoning har bir mamlakatida, har bir goʻshasida, halol va imonli kishilar bilan bir qatorda, ana shunday darbadar insonlarni ham koʻrmoqdaman... Shunday darbadarlikka muhtalo boʻlmaslikning yoʻllarini izlamoqdaman. Kun kelib, ruhim samolarga qarab yoʻl olganida, mukammallikka erishgan zotlar bilan bir qatorda boʻlishni orzu qilaman.” (Sulton I., 2010, 26.) Olim maktubdan soʻng, Vatan, ona tuproq, millat tarixi haqida oʻyga tolgan, oʻzi yaratgan mukammal inson geni orqali ilm-fanga va insoniyat xizmat qilish oʻrniga yana bir darbadar, hayotda maʼno-maqsadsiz mavjudot yaratib qoʻrganini anglab yetgan boʻlsa ne ajab.

Umuman olganda, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida koʻplab sharqona va milliy elementlar, jumladan mumtoz adabiyotimiz, tarixiy shaxs va allomalarimizga uzatmalar uchraydi. Asar ilm-fan taraqqiyoti haqida koʻrinsa-da aslida olam va odam haqidagi inson koʻzi bilan emas tafakkurining eng chuqur manzillari orqali idrok etiladigan asar sifatida oʻqiladi. Muallif bu asarda oʻz gʻoyasini uzatish uchun “Qurʻon”ni, “Injil”ni, “Tavrot”ni, Konfutsiy, Rumi, Gʻazzoliylardan tortib Enshteyn, Kyuri, Nyuton asarlarigacha chuqur oʻrganganligini sezmaslik mumkin emas. Biologiya, farmakologiya, genetika kabi turli fan yoʻnalisharidan ham yaxshigina xabardor, ekani seziladi.

Asarda diniy taʼlimotning teran falsafalari bilan bir qatorda, nihoyatda nozik nuqtalari ham boʻy koʻrsatib turadi, asar tilidagi joziba va goʻzallikni, aniqlik va ixchamlikni, milliylikni alohida taʼkidlash uchun quyidagi parcha yetarlidек tuyuladi: “Yer yuzida bunday mukammallikka erishgan necha kishi bor ekanini bilmayman. Lekin, aynan shu yoʻl orqali – tafakkur va ilm orqali Yassaviy gʻoriga kirib borishni, Gʻavsul Gʻiyos kim ekanligini bilishni, chiltanlar bilan suhbat qurishni istayman. Naqshbandiy bilan duradgorlik qilib, Buxoriy suhbatlarida qatnashmoqchiman. Beruniy bilan koʻkka boqib, ibn Sino qoshida xastaliklar bilan

*gaplashmoqchiman. Mashrab bilan piyoda kezib, Temur harblarini o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman, Boburning iztiroblarini anglab, Tojmahalga bosh qo'ymoqchiman*". (Sulton I., 2010, 27.) Chunonchi, har qanday "yangi badiiy yondashuvlar doimo an'anaga tayanadi; shoir yoki yozuvchi doimo tarixiy-estetik kontekstda shakllanadi".(Eliot T. S., 1919, 54.) Parchadan ko'rinib turibdiki, olimning o'g'li o'z ajdodlari bilan faxrlanadi, qadimda bilim va ilmning o'chog'i bo'lgan o'z Vatani allomalarining ishlarini davom ettirishni istaydi. Zamonaviy dunyoda yashayotgan Sharq kishisi nazdida boqiylikning mezonlari tamomila boshqa ekani aqlga keladi. Sharq tushunchasida mangu zotlar eliga va iymon-e'tiqodiga qat'iy sodiq kishilardir va mangulik o'zbek kishisiga ko'ra sirayam la'nat emas, balki yuksak darajadir. (Rasulov A., 2017, 63.) Shu sababdan ham Hazrati Xizrdan tashqari, turli aziz-avliyolarning ham boqiy ekaniga urg'u beriladi. Folklorimizdagi G'avsul G'iyos, chiltanlar obrazidan tortib to xalqimiz nazdidagi mangu barhayot zotlarga, xususan, Mir Alisher Navoiyga va Boborahim Mashrabga diqqat qaratiladi. Yozuvchi necha yillardan buyon Vatanidan uzoqda yashab, kashfiyot ustida tajribalar qilayotgan Professor Ziyoga, mukammal sun'iy inson kashfiyoti haqidagi Vatanida yashayotgan o'g'lining noroziligini sharqona otaga bo'lgan hurmat bilan, go'zal odob-axloq bilan, isxor etilishini, milliy qadriyat va imon-e'tiqod masalalarini eslash orqali mohirona ko'rsatib beradi. Shuningdek, romanda yozuvchi mashhur olimlar anjumanida genetika fani olimi asoschilari Beruniy va bir fransuz olimi ekanligini eslatib, so'nggi kashfiyot sohibi o'zbekistonlik daho olim Ziyoga ekanligini majlis ahliga tanishtirar ekan, bu kashfiyotda Ziyoga genetika qonuniyatlari bilan Sharq she'riyatidagi aruz vazni bahrlaridagi fe'l turlanishlari orasidagi bog'liqlikni mantiqiy modellashtirish orqali gen o'ramlarining eng maqbul kombinatsiyalaridan birini topganligini aytadi. Bu o'xshatishning ilmiy-mantiqiy asosi bo'lmasa-da, xayolot, va balki o'zbekning bir vakilining yaxshi orzusi sifatida, yoyinki, ijtimoiy fantastika janrining bir unsuri sifatida qarash to'g'ri bo'ladi, bizningcha. Badiiy adabiyotni millat madaniyatini tanitishning, qadriyatlarni avloddan-avlodga tashib boruvchi eng yaxshi vosita sifatida qaralganda, yozuvchi Isajon Sulton o'zining ushbu mo'jazgina asarida bu

vazifani juda yaxshi uddalaganini ko‘ramiz. “Badiiy yaratilgan dunyoga kelishi ham, uning idrok etilishi va tahlil qilinishi ham odamlarni o‘rab turgan borliqdan ko‘ra ularning tafakkur va sezimlar tizimi hamda qadriyat va e‘tiqod yo‘siniga ko‘proq bog‘liq. Negaki, badiiy yaratilgan o‘zi tashqi tabiat yoki borliqning emas, balki ularning ijodkor ichki dunyosidagi in‘ikosi o‘laroq paydo bo‘ladi. Shu boisdan ham badiiy asarni yaratish, uni qabul qilish, tushunish va izohlashda obyektiv omillardan ko‘ra subyektiv jihatlar ustuvorroq ahamiyat kasb etadi.” (Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M., 2016, 75.)

Milliy-ma‘daniy, folklor va tarixiy shaxslarga ko‘rsatmalar Rey Bredberining “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” asarida ham ko‘plab uchraydi., G‘arb-Yunon mifologiyasidan Qaqnus qushi, Ikarus afsonasi, Bobil minorasi va Salamander afsonasi kabilarni olish mumkin.

Feniks yoki qaqnus – qadimgi Misr mifologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘lmas qush bo‘lib, afsonalarga ko‘ra, u davriy ravishda o‘z-o‘zidan alanganib yonib ketadi va o‘zining kulidan qayta tiriladi va romandagi tabiiy aylanish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy metafora bo‘lib xizmat qiladi. “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”da shahar bombardimonchilar tomonidan kulga aylanganidan keyin, kitoblarni yod olgan ziyolilar shahar tomonga qarab yo‘l olishadi bu esa o‘z navbatida xuddi feniks qushi kabi bu insonlar kullar orasidan yangi, ilm-ma‘rifatga asoslangan, kitob o‘qish va u orqali ziyo ulashish mumkin bo‘lgan jamiyat yaratish sari ketganlarini anglatadi. Bredberi Grenjer obrazi orqali insoniyat parchalanish va qayta tug‘ilishning cheksiz davrlarini boshdan kechirmaslik uchun o‘z aql-zakovati va o‘zining intellektual va jismoniy halokati haqidagi bilimidan foydalanishiga umid bildiradi. Shuningdek, Qaqnusning bu obrazi romanda Montagning boshlig‘i kapitan Bitti bilan bog‘liq holda ishlatilgan. Ofitser sifatida Bitti romanning zamonaviy jamiyatdan oldin sivilizatsiya qanday bo‘lganini biladi. Gayning qiziqishini qondirish va har qanday keyingi savollarni bostirishga umid qilib, Bitti Gayga XX asr intellektual jihatdan qanday pasayib ketgani, asta-sekin kelajakdagi asrlarda kitoblarni taqiqlash darajasiga etgani, maktablar o‘quvchilarni o‘ylash yoki savol berishga o‘rgatishni to‘xtatganligi haqida gapiradi. ta‘lim o‘rniga ularni faktik

ma'lumotlar bilan, psixologik hedonizm(isrofgarchilik) eng ijobiy fazilatga aylanadi; barcha so'rovchilar va fikrlovchilar yo'q qilinadi. Bitti shlyapasida Feniks belgisini taqib yurishi va "Feniks mashinasi" ga minishi juda ahamiyatlidir. U o'tmish haqida juda katta bilimga ega, ammo istehzoli va fojiali ravishda o'z bilimlaridan qanday foydalanishni bilmaydi, unga faqat tarixiy qiziqish sifatida qaraydi. U faqat baxtning uzluksiz holati va tashvishlardan ozod bo'lishidan manfaatdor. U o'z bilimlarini faqat barcha o't o'chiruvchilar boshidan kechirgan muqarrar savollarni boshdan kechirayotgan o't o'chiruvchilarga beradi. U Gayga badiiy adabiyot faqat xayoliy dunyoni tasvirlashini, barcha buyuk g'oyalar bir-biriga zid va bahsli ekanligini aytadi; bu holatda kitoblar juda noaniq. Shunga ko'ra, Bitti tiriklayin yoqib yuboriladi va uning olovda o'limi ramziy ravishda Feniks belgisi bilan bog'liq qayta tug'ilishni tasvirlaydi. Gay Bittini o'ldirganida, u qochishga majbur bo'ladi va Grenjerga qo'shiladi; bu harakat Gay uchun yangi intellektual hayotning qayta tug'ilishiga aylanadi.

Ikar haqidagi yunon mifiga Bittining Montegga va'z o'qigani kelganida ishora qiladi. Bu ishora Ikar va Montag bir-biriga o'xshashligida, chunki ular ikkalasi ham iyerarxiyadan yuqori bo'lgan va qaysidir ma'noda biroz aqlliroq odamlarning, hukumatning qoidalariga qarshi turishganida ko'rinadi. Bu orqali Bitti quyoshga qarab uchish, ya'ni mavjud hokimiyat va qonunlarga qarshi turishning oxiri "qanotlar kuyishi" bilan tugashiga ishora qiladi.

Salamander Yevropa xalq afsonalariga ko'ra, salamander yong'inga bardosh bera oladigan afsonaviy hayvondir. Romanda salamander o't o'chiruvchilarni ifodalaydi. Uzoq vaqt davomida salamander olovga bardosh bera oladigan afsonaviy mavjudot ekanligiga ishonishgan; yondirsang, omon-eson chiqadi. Bredberi bu jonzotni yagona maqsadi uylarni yoqish bo'lgan o't o'chiruvchilarning ramzi sifatida ishlatganligi ajablanarli emas. Yuzlab yillar oldin, bu amfibiya, xuddi feniks kabi, boqiylik, qayta tug'ilish va ehtiros ramzi hisoblangan. Ertaklarda salamander kuch, himoya va bukilmaz iroda ramzi sifatida ko'riladi.

“Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”dagi Bobil minorasi sifatida keksa ayolning Bobil bo‘lib, ilohiy xo‘jayinga qarshi chiqqani, Bitti esa Xudo bo‘lib, Bobilni yo‘q qilgani bilan tenglashtirilgan.

Bredberi “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” dunyosining sayozligini ko‘rsatish uchun bir nechta o‘ziga xos adabiy iqtiboslardan foydalanadi. Adabiyotga havolalar yordamida Bredberi kitobdagi asosiy istehzoni amalga oshiradi: u buyuk kitoblarning o‘zi taqiqlangan dunyo haqidagi g‘oyalarini ta’kidlash uchun kitoblardan foydalanadi. Sviftning Gulliverning sayohatlari kitobining “Liliputiyaga sayohat” qismida, Liliputiya, tuxumni qaysi uchidan sindirish haqidagi katta nizoning keltirilishi Bredberi ma’naviy va intellektual qoloqlik va qashshoqlikka shama qiladi. Bundan tashqari muallif Shekspir, Benjamin Franklin, Hug Latimor, Avraam Linkolin kabi amerikalik tarixiy shaxs va mashhurlarga iqtiboslar keltiradi. Qora tanlilar va irqchilik kabi masalalarga ham to‘xtalib o‘tadi: *“Coloured people don’t like Little Black Sambo. Burn it. White people don’t feel good about Uncle Tom’s Cabin. Burn it. Someone’s written a book on tobacco and cancer of the lungs? The cigarette people are weeping? Bum the book. Serenity, Montag. Peace, Montag.”* (Bradbury R., 1995, 29) – *“Qora tanlilarga «Kichkina qora Sambo» kitobi yoqmaydi. Yoqish kerak. Oq tanlilarga «Tom tog‘aning kulbasi» yoqmaydi. O‘ni ham yoqish kerak. Kimdir chekish o‘pka rakiga sabab bo‘ladi deb kitob yozibdi. Tamaki fabrikantlarining paytavasiga qurt tushgan. Bu kitobni kuydirmoq kerak. G‘alvaning keragi yo‘q, Monteg, tinchlik kerak.”* (Bredberi R., 2007, 64.) Kapitan Bitti bu bayonotni Montagga kitobni yoqish uchun asos sifatida aytadi. Parchada Bitti kitoblar muammo tug‘dirishini, axborot olish imkoniyatini yo‘q qilish orqali jamiyat osoyishtalik va tinchlikka erishishini ta’kidlaydi.

Bu bilan Bredberi distopiyaga olib keladigan sirpanchiq nishab sifatida ko‘ringan narsaga urg‘u beradi: noqulaylik yoki bezovtalik keltirib chiqaradigan g‘oyalarga toqat qilmaslik ularga qarshi o‘z pozitsiya ega bo‘lish.

Yana bir parchada amerikaliklarning tashqi ko‘rinishga mukkasidan ketganligining istehzoli tasvirini ko‘rishimiz mumkin:

*“I voted last election, same as everyone, and I laid it on the line for President Noble. I think he’s one of the nicest-looking men who ever became president.”*

*“Oh, but the man they ran against him!”*

*“He wasn’t much, was he? Kind of small and homely and he didn’t shave too close or comb his hair very well.”*

*“What possessed the ‘Outs’ to run him? You just don’t go running a little short man like that against a tall man. Besides -he mumbled. Half the time I couldn’t hear a word he said. And the words I did hear I didn’t understand!”*

*“Fat, too, and didn’t dress to hide it. No wonder the landslide was for Winston Noble. Even their names helped. Compare Winston Noble to Hubert Hoag for ten seconds and you can almost figure the results.” (Bradbury R., 1995, 46.) – “O’tgan saylovlarda hamma kabi Nobl uchun ovoz berdim. Mening nazarimda, u qachon bo’lmasin prezidentlikka saylangan erkaklar ichida eng yoqimtoyidir.*

*— Eh-he, nimasini aytasiz? Boshqasini, Noblga qarshi ko’rsatilganini eslaysizlarmi? Har holda tuzukkina edi! Kichkinagina, ko’rimsiz, naridan- beri soqol-mo’ylovini olgan, sochlari taralmagan.*

*— Muxolifat qaysi miya bilan uning nomzodini ko’rsatganiga hayronman. Shunday pakana odamni baland bo’yli kishiga qarshi qo’yish mumkinmi? Ustiga ustak lattachaynar. Gapirganlaridan bitta narsani eshitmadim. Eshitganlarimni esa tushunmadim.*

*— Bundan tashqari semirib ketgan va buni kiyim bilan yashirishga harakat ham qilib ko’rmagan. Hayron qoladigan joyi yo’q, ko’pchilik Uinston Nobl uchun ovoz berdi. Bu yerda hatto ularning nomlari ham rol o’ynadi. O’zingiz qiyoslang: Uinston Nobl va Xyubert Xaug —javobi darrov o’zingizga ma’lum bo’ladi.” (Bredberi R., 2007, 102.)*

Uinston Nobl va Xubert Xoag: katta ehtimol bilan, Uinston Cherchill va Xubert Xamfriga ishora qiladi. Uinston Cherchill Ikkinchi Jahon urushi davrida (1940-1945) Buyuk Britaniya Bosh vaziri bo’lgan, senator Xubert Xamfri esa 1968 yilda Amerika prezidenti bo’lish uchun kurashda Richard Niksonga mag’lub bo’lgan. Biroq, bundan ham muhimi shundaki, Bredberi tomonidan tasvirlangan

jamiyatda siyosiy qarorlar, masalan, ovoz berish butunlay tashqi ko‘rinishga bog‘liq. Siyosat shou-biznesga aylanib ketdi. Prezidentning familiyasida kinoya tus olgandek.

### **XULOSA**

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, har qanday badiiy asarda u yaratilgan makon, zamon, siyosiy va iqtisodiy tizimlar, tarixiy va ma‘daniy elementlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi va bu asarning o‘ziga xos koloriti, u yaratilgan makon milliy madaniyatining bir jilosi sifatida namoyon bo‘ladi. Bredberi va Sulton asarlarida G‘arb va Sharq madaniyatiga xos badiiy tafakkur unsurlarini yaqqol nayo bo‘ladi. Adiblar ijodida estetik ifoda orqali umuminsoniy va madaniy qadriyatlarning badiiy uyg‘unligi namoyon bo‘lib, bu yondashuv zamonaviy adabiyotning dolzarb masalalaridan biri sifatida talqin qilinadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Naomi Segal, and Daniela Koleva, eds. *From Literature to Cultural Literacy*. – London: Palgrave Macmillan, 2014.
2. Rey Bredberi, Farengoyt bo‘yicha 451°. – Toshkent: Nihol nashr. 2022 y. 224 b.
3. Ray Bradbury. Fahrenheit 451. – New York: Simon & Schuster Paperbacks. 1995. – 249 p.
4. Rey Bredberi. Farengoyt bo‘yicha 451 daraja. // Jahon adabiyoti, 2007. – №7. – B. 208. Tarjimon Mirza-Anvar Karimov. – 100 b.
5. Isajon Sulton, “Boqiy Darbadar” – Toshkent: “Sharq yulduzi” jurnali, 2010. – №6 – 51-108 b.
6. Rasulov A. Yetuklik jozibasi. Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 384 b
7. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: 2016. – 302 b.
8. Said E. V. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978. – 368 p.

9. Bakhtin M. M. *The Dialogic Imagination: Four Essays* / Ed. by M. Holquist; Trans. by C. Emerson and M. Holquist. – Austin: University of Texas Press, 1981. – 444 p.
10. Bhabha H. K. *The Location of Culture*. – London: Routledge, 1994. – 285 p.
11. Lotman Yu. M. *Kultura i vzryv*. – M.: Gnosis, 1992. – 240 s.
12. Eliot T. S. *Tradition and the individual talent // The Egoist*. – 1919. – Vol. 6, №4. – P. 54–55.

### REFERENCES

1. Segal, N., & Koleva, D. (Eds.). (2014). *From literature to cultural literacy*. Palgrave Macmillan.
2. Bredberi, R. (2022). *Farengeyt bo'yicha 451°* (M. A. Karimov, Trans.). Nihol nashr.
3. Bradbury, R. (1995). *Fahrenheit 451*. Simon & Schuster Paperbacks.
4. Bredberi, R. (2007). *Farengeyt bo'yicha 451 daraja* (M. A. Karimov, Trans.). *Jahon adabiyoti*, (7), 100–208.
5. Sulton, I. (2010). *Boqiy darbadar*. *Sharq yulduzi*, (6), 51–108.
6. Rasulov, A. (2017). *Yetuklik jozibasi: Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar*. Turon zamin ziyo.
7. Yo'ldosh, Q., & Yo'ldosh, M. (2016). *Badiiy tahlil asoslari*. Toshkent.
8. Said, E. W. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.
9. Bakhtin, M. M. (1981). *The Dialogic Imagination: Four Essays* (M. Holquist, Ed.; C. Emerson & M. Holquist, Trans.). Austin: University of Texas Press.
10. Bhabha, H. K. (1994). *The Location of Culture*. London: Routledge.
11. Lotman, Y. M. (1992). *Kultura i vzryv*. Moscow: Gnosis.
12. Eliot, T. S. (1919). *Tradition and the individual talent*. *The Egoist*, 6(4), 54–55.